

O'ZBEK LIRIKASIDA ARAB VA FORS O'ZLASHMALARI: ERKIN VOHIDOV SHE'RLARI ASOSIDA LINGVOPOETIK TAHLIL

Nazarova Sabrina, NamDU 4-kurs talabasi,

Email: nazarovasabrina046@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov she'rlarida arab va fors tillaridan kirib kelgan o'zlashma so'zlarning qo'llanishi, ularning leksik-semantik xususiyatlari va badiiy matndagi lingvopoetik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirning she'riy uslubi, so'z tanlash mahorati va estetik ta'sirchanlikni oshirishda o'zlashma so'zlardan foydalanish yo'llari misollar asosida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Lingvopoetika, o'zlashma so'zlar, leksik-semantik xususiyatlar, ekspressivlik.

Annotation: This article analyzes the use of borrowed words from Arabic and Persian in the poems of the People's Poet of Uzbekistan, Erkin Vohidov. It explores their lexical-semantic features and their linguopoetic significance in artistic texts. The study highlights the poet's style, his mastery of word choice, and the ways in which borrowed words are employed to enhance aesthetic expressiveness through illustrative examples.

Key words: Linguopoetics, borrowed words, lexical-semantic features, expressiveness.

Аннотация: В данной статье анализируется использование заимствованных слов из арабского и персидского языков в стихах Народного поэта Узбекистана Эркина Вахидова, их лексико-семантические особенности и лингвопоэтическое значение в художественном тексте. В исследовании показаны поэтический стиль автора, мастерство выбора слов и способы применения заимствований для усиления эстетической выразительности на основе примеров.

Ключевые слова: Лингвопоэтика, заимствованные слова, лексико-семантические особенности, экспрессивность.

Kirish. Zamonaviy o'zbek she'riyatida milliy poetik an'analar bilan bir qatorda arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlar muhim o'rin egallaydi. Ular nafaqat tilning lug'aviy boyligini oshiradi, balki she'riy obrazlarning ta'sirchanligi va nafisligini kuchaytiradi. Shu jihatdan, biz Erkin Vohidov she'rlarida o'ziga xos jozibadorlik baxsh etuvchi jihatlari haqida so'z yuritamiz hamda lingvopoetik jihatdan tahlil qilamiz.



Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizda emotsionallik va ekspressivlikning she'riy matnda ifodalanishini tahlil qilishda lingvopoetik tahlil, uslubiy tahlil, umumlashtirish, tasniflash, tavsiflash usullaridan foydalandik.

Tahlil va natijalar. “Lingvopoetika” atamasi til va adabiyotning kesishish nuqtasida paydo bo'lgan soha hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – badiiy matnda tilning imkoniyatlari orqali estetik ta'sir kuchini ochib berishdir. . Bir so'z bilan aytganda, badiiy ijod namunalarimizning til xususiyatlarini o'zida jamlagan o'ziga xos soha. Tilshunos olim Adham Abdullayev ta'kidlaganidek, sintaktik figuralar, gradatsiya, antiteza, takror va ritorik so'roqlar fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi [1,54].

Erkin Vohidov ijodida arabcha va forscha o'zlashmalar turli darajalarda qo'llanadi. Ularning qo'llanishini quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

- Diniy-ma'naviy mazmunga ega so'zlar;
- She'riy obraz va tashbeh yaratishda ishlatilgan o'zlashmalar;
- Hissiy-emotsionallik vazifasini bajaruvchi birliklar.

Endi biz o'tkir qalam sohibi Erkin Vohidovning eng sara she'rlari jamlangan “Yoz harorati” to'plamidan ayrim namunalarni ko'rib chiqamiz:

Yellar olib qochdi qishning xobini,

Barglar chapak chalib uyg'ondi shodon. (**“Bahor”**)

Ushbu misralarda qo'llangan “xob”, “chapak”, “shodon” so'zlari boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar sanaladi. Bu yerda “xob” so'zi forscha so'z bo'lib, “uyqu”, “uxlash”, “chapak” so'zi arabcha “chafq” (qarsak) so'zidan o'zlashgan va “qarsak chalish” hamda “shodon” so'zi ham arabcha so'z bo'lib, “xursand”, “quvonchli” ma'nosini anglatadi. O'zlashma so'zlar qishdan keyingi jonlanishni ta'riflashda juda to'g'ri tanlangan va bu arab va fors tilidan o'zlashgan so'zlarning o'zbek tilida estetik ma'noda qanchalik mos kelishini ko'rsatadi.

Shoirlarga hayron bo'lmang

Shoir xalqi turfaroq.

Gohi mag'rur, gohi diltang

Goh hazin, goh tumtaroq. (**Shoir Husniddin Sharipovga**)

O'zlashma so'zlar: “shoir”, “mag'rur”, “diltang”, “hazin”, “tumtaroq”. “Shoir” so'zi arabcha so'z bo'lib, “she'r yozuvchi”, “mag'rur” so'zi arabchadan o'zlashgan bo'lib, “kibri”, “o'ziga ishonchli” deganidir. Bundan tashqari, “diltang” so'zi arabcha “dil” va forscha “tang” so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan va “siqilgan” yoki “xafa”, “hazin” so'zi arabcha so'z bo'lib, “g'amgin”, “ma'yus” hamda “tumtaroq” so'zi



forscha so‘z bo‘lib, “dabdaba” yoki “ko‘z-ko‘z” ma‘nosida ishlatiladi. Bu o‘zlashma so‘zlar shoir tabiatidagi his-tuyg‘ularni chuqur ifodalashga xizmat qilib, o‘zbek she‘riyatining badiiy uslublarida arab va fors so‘zlarining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Qo‘lingizdan yana sakson-u sakson tushmasin xoma,

Yetolmay ilkingizga hassa sakson yil hunob o‘lsin.

Yuqoridagi misralardagi o‘zlashma so‘zlarni “xoma”, “ilk”, “hasa”, “hunob” so‘zlari tashkil qiladi. Bu yerda “xoma” so‘zi forscha so‘z bo‘lib, “qalam” ma‘nosida kelgan. “Ilk” so‘zi ham forscha so‘z bo‘lib, “kaft” yoki “qo‘l”, “hasa” so‘zi arabchadan o‘zlashgan bo‘lib, “tayanich tayoq” degani va “hunob” so‘zi arabchada “g‘amgin”, “azobli”, “ranj” ma‘nolarni beradi. Bu so‘zlar nafaqat o‘zbek tilining boyligini ko‘rsatadi, balki badiiy obrazni ham kuchaytiradi. Masalan, “xoma” so‘zi ijodiy qurolni ifodalasa, “hasa” so‘zi kuchsizlanishni, “hunob” esa hayotdan ranj olishni ifodalaydi.

Aruziy vazni nomarg‘ub degan ba‘zi munaqqidlar,

So‘zi shudgorga oqsin, qishga qolsin-u yaxob o‘lsin.

Misralarda “aruziy”, “nomarg‘ub”, “munaqqid”, “shudgor”, “yaxob” kabi so‘zlar o‘zlashma so‘zlar qatorini tashkil etadi. “Aruziy” so‘zi arabcha kelib chiqqan so‘z bo‘lib, “aruz vazni” degan ma‘noda, “nomarg‘ub” arabcha so‘z bo‘lib, “yoqimsiz”, “ma‘qul bo‘lmagan” ma‘nosida, “munaqqid” so‘zi ham arabcha bo‘lib, “tanqidchi”, “tanqid qiluvchi” ma‘nosida, “shudgor” so‘zi forscha so‘z bo‘lib, “yer haydash”, “ekin ekish uchun yer tayyorlash” ma‘nosida, “yaxob” so‘zi fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “muzlagan suv” yoki “muz qatlami” degan ma‘noni bildiradi [4,154]. Bu so‘zlar tanqidning asosiy ma‘nosini kuchaytiradi va yuqoridagi o‘zlashma so‘zlar o‘quvchiga aruz vaznining ahamiyatini va unga qarshi tanqidlarning samarasizligini ifoda qilishga yordam beradi.

Kajfe‘l, kajraftorlar tarbiyasiga

Kajdumlar qismati ibratdir ayon.

O‘zlashma so‘zlar qatoriga “kajfe‘l”, “kajraftor”, “kajdum”, “ibrat” va “ayon” so‘zlarini olamiz. “Kajfe‘l” so‘zi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “egri fe‘l”, “yomon xulq” ma‘nosida, “kajraftor” so‘zi fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “yomon yo‘ldagi”, “yomonli niyatli” ma‘nosida, “kajdum” so‘zi ham forscha so‘z sanalib, “egriligi bilan tanilgan chayon yoki ilon” ma‘nosida, “ibrat” so‘zi arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “nasihat”, “ta‘lim” va “ayon” so‘zi ham arabcha so‘z bo‘lib, “ravshan”, “aniq” ma‘nosida kelgan. Bu o‘zlashma so‘zlar she‘rning asosiy g‘oyasini kuchaytiradi va matndagi ma‘noni boyitib, o‘quvchiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi.

Tong qoldirib qaro iqbolim,



Chidolmayman yurak dog‘iga.

Bora-bora aylanib qoldim

Bozingarning qo‘g‘irchoq‘iga. (**“Tush”**)

Ushbu misralarda ishlatilgan o‘zlashma so‘zlar: “iqbol”, “bozingar”, “qo‘g‘irchoq”, “dog” kabi so‘zlar. “Iqbol” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “omad”, “taqdir” yoki “hayot yo‘li” ma‘nosini, “bozingar” so‘zi forscha so‘z bo‘lib, “bozor egasi” yoki “bozor o‘yinchisi” ma‘nosini, “qo‘g‘irchoq” so‘zi ham fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “qo‘g‘irchoq” yoki “boshqariluvchi o‘yinchoq” ma‘nosini beradi. Misralarda qo‘llangan o‘zlashma so‘zlar badiiy tasvirni boyitadi va bu badiiy ifoda orqali insonning ichki dardi, o‘z taqdiri ustidan nazorat yo‘qotishi va boshqaruvsizligi yetkazilgan.

Bu she‘rdan maqsadim raddiya emas,

Yurtim jahon bilgan O‘zbekistondir. (**“Bir burda non”**)

Misralarda qo‘llangan o‘zlashma so‘zlar “maqsad”, “raddiya” va “jahon” so‘zlaridir. Bu yerda “maqsad” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “niyat”, “istak”, “ko‘zlangan maqsad” ma‘nosini beradi. “Raddiya” so‘zi arabcha o‘zlashma so‘z bo‘lib, “qarshi javob”, “inkor” yoki “tanqid” ma‘nosini va “jahon” so‘zi ham arabcha so‘z bo‘lib, “dunyo”, “butun olam” ma‘nosini bildiradi. O‘zlashma so‘zlar vatanparvarlik tuyg‘usini va yurtining jahon tan olganligini ta’kidlash uchun jozibali tarzda qo‘llangan.

Yondirganidek bizni pari mohi liqolar,

O‘t nasli janona.

Gul boshin egib jilmayadir, baxtli kelinchak

Mashshotasi - oftob. (**Ko‘klam mustahzodi**)

O‘zlashma so‘zlar qatoriga “pari”, “mohi”, “liqo”, “janona” va “mashshota” so‘zlarini olamiz. Bunda “pari” so‘zi forscha so‘z bo‘lib, “farishta kabi chiroyli qiz” degani, “mohi” so‘zi ham fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “oy” ma‘nosini, “liqo” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “yuza”, “qiyofa”, “chehra” ma‘nosini, “janona” so‘zi forscha o‘zlashma bo‘lib, “go‘zal”, “dilrabo” kabi ma’nolarni hamda “mashshota” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “kelin yoki go‘zal ayolni bezatadigan ayol” ma‘nosini anglatadi. Ko‘rinadiki, ushbu o‘zlashma so‘zlar she‘rni go‘zallik va nafislikni yorqinroq tasvirlash uchun xizmat qiladi.

Xulosa. Shu o‘rnida aytishimiz mumkinki, arab va fors tillaridan kirib kelgan so‘zlar o‘zbek she‘riyatida nafaqat lug‘aviy boylik, balki milliy va umumsharqiy adabiy an‘analarning uyg‘unlashuvi sifatida ham muhimdir. Erkin Vohidov lirikasi



o‘zbek she’riyati tarixida alohida bosqich bo‘lib, unda arab va fors o‘zlashmalari muhim lingvopoetik vazifani bajaradi. Bunday o‘zlashmalar shoirning poetik olamini yanada boyitadi, she’rga musiqiylik, ohangdorlik va falsafiylik bag‘ishlaydi. Shu boisdan, shoir ijodida arabcha va forsha leksemalarning qo‘llanishi nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik nuqtayi nazardan ham keng tadqiq etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A. O‘zbek tilining ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983. 88 bet.
2. Qur’onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov X. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2023.
5. www.wikipedia.org